(5). Mariani L. Learning strategies, teaching strategies and new curricular demands: a critical view, https://www.researchgate.net/publication/263854179, 2015, 13 p.; pp. 6–7.

(6). Robbins J., and Chamot A.U. The learning strategies Handbook, Addison Wesley Longman, Inc. 1999, 260, p. 11–12.

(7). Wenden A., Rubin J. Learner strategies in language learning, Prentice-Hall International English Language Teaching, 1987, 181 p.; p. 19–22.

(8). Zybert J. Language Learning strategies: some pedagogical implications, Scripta Neophilologca Posnaniensia, Tom III, strony: 151–159, Wydzial Neofilologii, UAM Pozman, 2001.

**Haytanova Yulduzxon Zafarjon qizi (Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti tayanch doktoranti, Nukus, Qoraqalpog'iston, O'zbekiston; e-mail: yulduzxonhaytanova@gmail.com)**

## BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING LINGVOPRAGMATIK MODELI: TANQIDIY-PRAGMATIK DISKURS PORTFELI (TPDP)

***Annotatsiya.*** *Taqdim etilayotgan maqolada kelgusida ingliz tili fanidan dars beruvchi o'qituvchilarning ayni payta tahsil olayotgan bakalavr talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini lingvopragmatik yondashuvlar vositasida rivojlantirishga yo'naltirilgan Tanqidiy-Pragmatik Diskurs Portfeli (TPDP) modeli haqida so'z boradi. Ushbu ilmiy tadqiqotning yangiligi aynan mavjud adabiyotlarda tanqidiy fikrlash bilan lingvopragmatik qarashlar ingliz tilida ta'lim olayotgan talabalar uchun ularning tanqidiy faoliyatini shakllantirish uchun amaliy taraflama birlashtirilgan holda ko'rsatilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi nazariy taraflama asoslangan, TPDP modelini yaratish va uni amaliyotga joriy etishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati–TPDP modeli oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish metodikasi kurslarida qo'llanilishi mumkinligidadir.*

***Kalit so'zlar:*** *tanqidiy fikrlash, lingvopragmatika, TPDP modeli, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, diskurs tahlili, pragmatik intensiya, baholash rubrikasi.*

## ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ПОРТФЕЛЬ КРИТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА (ТПДП)

***Аннотация.*** *В представленной статье речь идёт о модели Портфеля критико-прагматического дискурса (ТПДП), направленной на развитие навыков критического мышления у будущих преподавателей английского языка – студентов бакалавриата, обучающихся в настоящее время, – посредством лингвопрагматических подходов. Новизна данного научного исследования заключается в том, что в существующей литературе критическое мышление и лингвопрагматические взгляды не были представлены в практически объединённом виде для формирования критической деятельности студентов, изучающих английский язык. Целью данного исследования является создание, на теоретически обоснованной основе, модели ТПДП и внедрение её в практику. Научно-практическая значимость исследования заключается в том, что модель ТПДП может применяться на курсах методики преподавания английского языка в высших учебных заведениях.*

***Ключевые слова:*** *критическое мышление, лингвопрагматика, модель ТПДП, будущие учителя английского языка, дискурс-анализ, прагматическая интенция, рубрика оценивания.*

## A LINGUOPRAGMATIC MODEL FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS: THE CRITICAL-PRAGMATIC DISCOURSE PORTFOLIO (TPDP)

***Annotation.*** *This article addresses the Critical-Pragmatic Discourse Portfolio (TPDP) model, aimed at developing the critical thinking skills of prospective English language teachers – undergraduate students currently pursuing their studies – through linguapragmatic approaches. The novelty of this research lies in the fact that existing literature has not presented critical thinking and linguapragmatic perspectives in a practically integrated form for shaping the critical activity of students studying English. The purpose of this study is to develop, on a theoretically grounded basis, the TPDP model and to introduce it into practice. The scientific and practical significance of the research lies in the fact that the TPDP model can be applied in methodology courses for teaching English at higher education institutions.*

***Keywords:*** *critical thinking, linguapragmatics, TPDP model, pre-service English teachers, discourse analysis, pragmatic intention, assessment rubric.*

**Kirish.** Bugungi kunda pedagog kadrlarni har taraflama yetuk qilib yetishtirish oliy ta'lim tizimining asosiy muammolaridan biri. Jahon ta'lim standartlaridan andoza olgan holda bo'lajak ingliz tili o'qituv-

chilarini faqatgina til kompetensiyasini rivojlantirishga urg‘u berish emas, balki tanqidiy va kreativ fikrlashini ham takommillashtirish ustuvor vazifalarga aylanmoqda. Oliy ta’lim o‘qituvchilari ingliz tilida tahsil olayotgan talabalarga tilning faqat grammatik yoki to‘rtta ko‘nikmaga asoslangan holda o‘rgatishi bu zamonaviy ta’lim tizimida yetarli emas. Shu sababli o‘qituvchi matnni yuzaki emas, chuqur, kontekstga bog‘liq holda tahlil qila olishi, talabalarda ham shu ko‘nikmani shakllantira olishi lozim. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy metodika, ko‘pincha, grammatik-leksik kompetensiyaga urg‘u berib, matn-ning pragmatik va tanqidiy taraflama tahlil qilinishiga yetarli e’tibor qaratilmaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** TPDP modelining nazariy poydevorini bir necha yo‘nalishdagi tadqiqotlar tashkil etadi.

Birinchidan, Facione tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlashning olti komponentli taksonomiyasi (talqin qilish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish) modelning “Maqsadli blok”ni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qildi. Facione konsepsiyasining afzalligi shundaki, u tanqidiy fikrlashni mavhum tushuncha emas, balki baholanishi mumkin bo‘lgan aniq ko‘nikmalar majmuasi sifatida taqdim etadi [1].

Ikkinchidan, Fairclough tomonidan asoslangan Tanqidiy Diskurs Tahlili (CDA) nazariyasi matnni ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq holda talqin qilish zaruratini asoslaydi. Ushbu nazariya TPDP modelining “Mazmun-metodik blok”iga nazariy asos bo‘lib, o‘quv matnlarini tanlash va ularni pragmatik nuqtai nazardan tashkil etish mezonlarini belgilashda qo‘llanildi [2].

Uchinchidan, Hymes tomonidan taklif etilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi tilni faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy kontekstda amalga oshiriladigan kommunikativ vosita sifatida ko‘rishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv TPDP modelining “Texnologik-protsessual blok”ida vazifalar tizimini loyihalashtirishda, xususan, o‘quvchilarning nutqiy vaziyatlarni to‘g‘ri tushunish va unga mos reaksiya berish ko‘nikmalarini rivojlantirishda asos bo‘ldi [3].

To‘rtinchidan, Austinning nutq akti nazariyasi (speech act theory) so‘zlovchining aytilgan gap orqali amalga oshirmoqchi bo‘lgan kommunikativ niyatini (illokutiv kuchni) aniqlash zarurligini asoslaydi. Ushbu nazariya TPDP modelidagi vazifa tizimining uchinchi bosqichi – pragmatik intensiyani aniqlash bosqichi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi [4].

Beshinchidan, Ashurova tomonidan ishlab chiqilgan olti turdagi lingvopragmatik intensiya tipologiyasi (e’tiborni jalb qilish, qiziqtirish, hissiy ta’sir ko‘rsatish, bilim tuzilmalarini faollashtirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish, konseptual dun-yoqarashni ifodalash) TPDP modelining “Mazmun-metodik” va “Texnologik-protsessual” bloklarida badiiy matnlarni tahlil qilish mezonlari sifatida bevosita qo‘llanildi. Aynan shu tipologiya modelning amaliy-tatbiqiy qismini – talabalar tomonidan matnda pragmatik intensiyalarni aniqlash vazifalarini – shakllantirishning markaziy nazariy tayanchi hisoblanadi [5].

Yuqorida keltirilgan nazariyalarning har biri alohida holda o‘z sohasida keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ularni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash uchun yagona amaliy model – TPDP sifatida integratsiya qilish adabiyotlar tahlili natijasida aniqlangan tadqiqot bo‘shlig‘ini (research gap) tashkil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot tajriba-sinov (pedagogik eksperiment) metodiga asoslangan bo‘lib, uch bosqichda – aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida olib boriladi. Tadqiqotda OTM 3-bosqichda tahsil olayotgan ingliz tili filologiyasi va ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishidagi talabalar tajriba sinov ishlariga jalb etiladi. Tajriba ikkita usulda tanlangan talabalarning teng yarmi yangi TPDP modeli asosida, qolgan yarmi esa an’anaviy metod orqali badiiy matnni tahlil qiladilar.TPDP modelini amaliyotga tatbiq etishda badiiy matnlar sifatida Keyt Shopenning “A Pair of Silk Stockings” (51 birlikdan iborat lug‘at ro‘yxati bilan) va Jamayka Kinkeydning “Girl” (35 birlikdan iborat lug‘at ro‘yxati bilan) hikoyalaridan foydalanildi. Har bir matn ustida ishlash to‘rt bosqichli vazifa tizimi asosida tashkil etildi: birinchi bosqichda talabalar matnni ko‘zdan kechirish (skimming) va tarash (scanning) texnikalari yordamida jadval to‘ldiradilar; ikkinchi bosqichda matndagi diskurs markerlarini aniqlaydilar; uchinchi bosqichda Ashurova tipologiyasiga asoslanib matndagi pragmatik intensiya turini aniqlaydilar; to‘rtinchi bosqichda sakkizta tanqidiy fikrlash savoliga mustaqil javob beradilar. Natijalarni baholash uchun to‘rt mezonli, har biri 25 balldan iborat (jami 100 ball) reyting rubrikasi ishlab chiqildi, unga ko‘ra respondentlar uch darajaga – qoniqarli (56–70 ball), o‘rta (71–85 ball) va yuqori (86–100 ball) – ajratildi.

**Tahlil va natijalar.** Tanqidiy-Pragmatik Diskurs Portfeli (TPDP) modeli to‘rtta o‘zaro bog‘liq blokdan iborat bo‘lib, ularning har biri aniq nazariy asos va tarkibiy komponentlarga ega. Modelning umumiy tuzilishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

*1-jadval*

**TPDP modelining tarkibiy tuzilishi**

| Blok | Maqsadi / mohiyati | Tarkibiy komponentlar | Nazariy asos |
|---|---|---|---|
| 1. Maqsadli blok | Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisida tanqidiy fikrlash va lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish maqsad va vazifalarini belgilash | Ta’lim maqsadi; kutilayotgan natija (tanqidiy fikrlash darajasi); o‘quv vazifalarining maqsadli yo‘nalganligi | Facione CT taksonomiyasi |
| 2.Mazmun-metodik blok | O‘quv matni va pragmatik intensiyalar tizimini tanlash, matn mazmunini metodik jihatdan tashkil etish | Badiiy matnlar (Chopin, Kincaid); 6 ta pragmatik intensiya turi; leksik-diskursiv birliklar ro‘yxati | Ashurovaning 6 turli lingvopragmatik tipologiyasi; Fairclough CDA |
| 3. Texnologik-protsessual blok | Vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish texnologiyasini belgilash | 4 bosqichli vazifa tizimi: 1) skimming / scanning jadvali; 2) diskurs markerlarini aniqlash; 3) pragmatik intensiyani aniqlash; 4) 8 ta tanqidiy fikrlash savoli | Hymes kommunikativ kompetensiya nazariyasi; Austin nutq akti nazariyasi |
| 4.Natija-baholash bloki | Erishilgan natijalarni uch darajali rubrika asosida baholash | 4 ta mezon (har biri 25 ball) = 100 ball; qoniqarli (56–70) / o‘rta (71–85) / yuqori (86–100) darajalari | Mezonga asoslangan baholash (criterion-referenced assessment) |

Modelning “Natija-baholash bloki” uch darajali mezonga asoslangan rubrika orqali amalga oshiriladi. Har bir daraja uchun mezon tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.

*2-jadval*

**TPDP baholash rubrikasi (100 ballik tizim, 4 mezon × 25 ball)**

| Daraja | Ball oralig‘i | Tavsif |
|---|---|---|
| Qoniqarli | 56–70 | Talaba matnni yuzaki tahlil qiladi, pragmatik intensiyalarni qisman aniqlaydi, tanqidiy fikrlash savollariga ibtidoiy javob beradi |
| O‘rta | 71–85 | Talaba diskurs markerlarini to‘g‘ri aniqlaydi, pragmatik intensiyalarning ko‘pchiligini asoslay oladi, tanqidiy fikrlash savollariga mustaqil, ammo cheklangan chuqurlikda javob beradi |
| Yuqori | 86–100 | Talaba matnni to‘liq lingvopragmatik tahlil qiladi, barcha 6 turdagi pragmatik intensiyani aniq asoslaydi, tanqidiy fikrlash savollariga chuqur, argumentlashtirilgan javob beradi |

**Xulosa.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Tanqidiy-Pragmatik Diskurs Portfeli (TPDP) modelining bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash va lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Modelning to‘rt blokli tuzilishi – maqsadli, mazmun-metodik, texnologik-protsessual va natija-baholash bloklari – nazariy jihatdan asoslangan va amaliyotda qo‘llash uchun qulay tizim yaratadi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagilar tavsiya etiladi: TPDP modelini boshqa til va janrlarga (masalan, ilmiy-publitsistik matnlar) moslashtirish; modelning raqamli ta’lim platformalarida (LMS) avtomatlashtirilgan versiyasini ishlab chiqish; modelni magistratura bosqichida ham sinovdan o‘tkazish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Facione P.A. (1990). Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). California Academic Press.

(2). Fairclough N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. Longman.

(3). Hymes D. (1972). On Communicative Competence. In J.B.Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings. Penguin.

(4). Austin J.L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.

(5). Ashurova D.U. (2019). Cognitive Modeling of Fictional Text. Springer.
(6). Chopin K. (1897). A Pair of Silk Stockings. Vogue.
(7). Kincaid J. (1978). Girl. The New Yorker.
(8). Levinson S.C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.

**Bakirov Feruz Sayfulla o'g'li (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti doktoranti; feruzbakirov@gmail.com; https://orcid.org/0009-0007-6640-2845)**

## BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING SHAXSIY NAMUNASI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida ota-onaning shaxsiy namunasi yetakchi tarbiyaviy omil sifatida tahlil qilinadi. Oiladagi kundalik ekologik xulq-atvor, resurslardan oqilona foydalanish, tabiatga ehtiyotkor munosabat va chiqindilar bilan muomala qilish kabi amaliy odatlarning bola ongiga ta'siri yoritiladi. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi, ekologik tizimlar yondashuvi hamda barqaror rivojlanish uchun ta'lim tamoyillari asosida ota-onaning so'z va amali o'rtasidagi uyg'unlikning tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, oilada ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy usullar va ota-ona–bola hamkorligining samarali shakllari taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, oila, ota-ona, shaxsiy namuna, ekologik xulq-atvor, ekologik mas'uliyat, barqaror rivojlanish.*

## ЛИЧНЫЙ ПРИМЕР РОДИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ

***Аннотация.*** *В статье личный пример родителей рассматривается как один из ведущих воспитательных факторов формирования экологической культуры у детей. Анализируется влияние повседневного поведения в семье – бережного использования воды и энергии, ответственного обращения с отходами, заботы о растениях и окружающей среде – на становление экологических привычек ребёнка. На основе идей социального научения, экологического подхода к развитию личности и принципов образования в интересах устойчивого развития раскрывается значение согласованности между словами и поступками родителей. Предлагаются практические формы семейной деятельности, направленные на развитие экологической ответственности детей.*

***Ключевые слова:*** *экологическая культура, экологическое воспитание, семья, родители, личный пример, экологическое поведение, ответственность, устойчивое развитие.*

## THE PERSONAL EXAMPLE OF PARENTS IN FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN CHILDREN

***Annotation.*** *This article examines parental personal example as a key educational factor in the formation of ecological culture in children. It discusses how everyday family practices–careful use of water and energy, responsible waste handling, respect for plants and the surrounding environment–shape children's ecological habits. Drawing on social learning theory, ecological approaches to human development, and education for sustainable development, the article highlights the importance of consistency between what parents say and what they actually do. Practical forms of parent–child cooperation aimed at strengthening ecological responsibility are also proposed.*

***Keywords:*** *ecological culture, environmental education, family, parents, personal example, ecological behavior, responsibility, sustainable development.*

**Kirish.** XXI asrda ekologik muammolar faqat tabiatshunoslik yoki atrof-muhitni muhofaza qilish doirasidagi masala bo'lib qolmay, insonning kundalik turmushi, qadriyatlari va xulq-atvori bilan bevosita bog'liq ijtimoiy-pedagogik muammoga aylandi. Suv va energiyadan foydalanish, maishiy chiqindilar miqdori, iste'mol madaniyati, yashil hududlarga munosabat singari ko'plab ekologik natijalar odamlarning har kuni takrorlanadigan qarorlaridan tarkib topadi. Shu sababli ekologik ta'limning samarasi bolaga nechta ekologik tushuncha o'rgatilgani bilangina emas, balki ushbu bilimlar kundalik odatlarga qay darajada aylangani bilan ham belgilanadi [1].

Bolalik davrida xulq-atvor me'yorlari, munosabat shakllari va qadriyatlar ko'p jihatdan oila muhitida o'zlashtiriladi. Bola kattalar aytgan fikrlarni tinglash bilan birga, ularning real hayotdagi harakatlarini muntazam kuzatadi, takrorlaydi va asta-sekin o'zining odatiy xatti-harakatiga aylantiradi. Shu ma'noda ota-onaning tabiatga munosabati ekologik tarbiyaning yashirin, ammo kuchli dasturi vazifasini bajaradi. Uyda suvni keraksiz oqizmaslik, chiroqni bekorga yoqib qo'ymaslik, chiqindini tartibli yig'ish, oziq-ovqatni isrof